



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасва Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Лазизахон Алиджанова БЕРУНИЙНИНГ ҚИЁСИЙ ДИНШУНОСЛИККА ОИД ИЛМИЙ ЁНДАШУВИ.....	5
2. Шоҳрух Гулбаев ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ТЎХОРИСТОН.....	9
3. G‘ulom Djumamurotov XVIII ASR VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IQTISODIY ALOQALARI.....	13
4. Bahodir Isakov O‘ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY MEROSNING O‘RNI.....	20
5. Parvina Ismoilova TURKISTONGA RUS BANKLARINING KIRIB KELISHI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI).....	24
6. Икрамжон Исмаилов ЎЗБЕКИСТОНДА ХАЛҚАРО АНДОЗАЛАРГА МОС КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ БОРАСИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй.).....	29
7. Парвиз Магеррамов ВЗАИМООТНОШЕНИЯ АЗЕРБАЙДЖАНА СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ОБЛАСТИ ТРАНСПОРТА.....	37
8. Sayyora Turayeva XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MINTAQASIDA XORIJIY JAMIYATLARNING KONCHILIK SOHASIGA KIRIB KELISHI TARIXIDAN.....	44
9. Дмитрий Епифанов ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА НА ПРИМЕРЕ CHATGPT.....	55
10. Зебунисо Саидова ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ ЁШ-ЖИНСИЙ ТАРКИБИ ДИНАМИКАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР).....	65
11. Nishona Hasanova MARKAZIY OSIYODA BOG‘-XIYOBON SAN’ATI VA CHORVACHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI.....	74
12. Ўткиржон Хошимов ҚАЙТА ҚУРИШ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЛМ-ФАН СОҲАЛАРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	79



Bahodir Nigmatullayevich Isakov,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
tarix fanlari nomzodi

O‘ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY MEROSNING O‘RNI

For citation: Bakhadir N. Isakov. THE ROLE OF HISTORICAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM CULTURE IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 3, pp.20-23

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132816>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistondagi tarixiy-me‘moriy obidalar, qadimiy madaniyat yodgorliklariga boy Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Xiva kabi shaharlarda turizmni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda bu jarayonda O‘zbekiston tarixining tutgan o‘rni xususida fikr yuritiladi.

Muallif ming yillar davomida ajdodlarimizning mohir hunarmandlari tomonidan yaratilgan ajoyib mahsulotlar, moddiy boyliklar, tarixiy obidalar dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlarni o‘ziga jalb etib, yurtimizda turizmni yanada rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjudligiga e‘tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: Buyuk Ipak yo‘li, madaniy turizm, tarixiy-madaniy yodgorliklar, tarixiy-me‘moriy obidalar, tarixiy turizm, turizm klasterlari, ziyorat turizmi.

Бахадир Нигматуллаевич Исаков,
Узбекский государственный университет мировых языков,
кандидат исторических наук

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются меры, проводимые по дальнейшему развитию туризма в таких городах Узбекистана, как Бухара, Самарканд, Шахрисабз и Хива, которые богаты историко-архитектурными памятниками и древними культурными реликвиями, а также вопросы значения истории Узбекистана в этом процессе.

Автор обращает внимание на то, что удивительные изделия, материальные богатства и исторические памятники, созданные искусными предками-мастерами на протяжении тысячелетий, привлекают туристов со всего мира, и существуют достаточные возможности для дальнейшего развития туризма в нашей стране.

Ключевые слова: Великий Шелковый путь, культурный туризм, историко-культурные памятники, историко-архитектурные памятники, исторический туризм, туристические кластеры, паломнический туризм.

Bakhadir N. Isakov,
Uzbekistan State World Languages University,
Candidate of Historical Sciences

THE ROLE OF HISTORICAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM CULTURE IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article examines the measures taken to further develop tourism in such cities of Uzbekistan as Bukhara, Samarkand, Shakhrisabz and Khiva, which are rich in historical and architectural monuments and ancient cultural relics, as well as the importance of the history of Uzbekistan in this process.

The author draws attention to the fact that amazing products, material wealth and historical monuments created by skilled ancestors-masters over thousands of years attract tourists from all over the world, and there are sufficient opportunities for the further development of tourism in our country.

Index Terms: The Great Silk Road, cultural tourism, historical and cultural monuments, historical and architectural monuments, historical tourism, tourist clusters, pilgrimage tourism.

1. Dolzarbligi:

Hozirgi kunda turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan ko'p qirrali sohadir. Turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, uning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tarixiy turizm e'tirof etiladi.

Tarixiy turizm – tarixiy obyektlar, madaniy yodgorliklar, muzeylar va boshqa tarixiy ahamiyatga ega joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga olgan, jahon turizm industriyasining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, sayyohlarning turli mamlakatlarning boy madaniy va tarixiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishi bilan ifodalanadi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolani tayyorlashda umume'tirof etilgan ilmiy usullar – tarixshunoslik, qiyosiy tarixiy va mantiqiy tahlillar, izchillik va xolislik tamoyillaridan hamda statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

Mamlakatimizda turizm madaniyatini rivojlantirishda tarixiy merosning o'zni masalalari kompleks tarzda o'rganilgan bir qancha ilmiy ishlarni, jumladan, M.Muhamedova, Z.Abidova, H.Murodov, G.Egamberdiyeva, Sh.Qulmatov, A.Berdimurodov, D.Abduazizova, R.Abriyevlarning ilmiy tadqiqotlarini qayd etish mumkin.

3. Tadqiqot natijalari:

Tarixiy turizmning asosiy maqsadi o'tmishni o'rganish va qadrlash, shuningdek, turli hududlarning madaniyati va an'analari bilan tanishishdan iborat. So'nggi yillarda madaniy meros va tarixga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi sababli tarixiy turizm tobora ommalashib borayotgan sayohat turiga aylandi. Ko'pgina mamlakatlarda tarixiy turizm mahalliy iqtisodiyotning o'sishiga, yangi turistik mahsulot va xizmatlarning rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Jumladan, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Gretsiya, Xitoy, Turkiya, Hindiston kabi davlatlar tarixiy turizm taraqqiy topgan davlatlar sirasiga kiradi.

Ma'lumki, o'zining boy madaniy-tarixiy merosi, betakror me'morchiligi bilan jozibali bo'lgan qator shaharlarining qadimiy tarixiy obidalari O'zbekiston tarixiy-madaniy turizmining asosiy poydevori hisoblanadi hamda turizmni rivojlantirish istiqbollari belgilab beradi.

O'zbekiston zamon bilan hamnafas holda jahon turizm sohasidagi jarayonlarni o'rganib, ushbu sohani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida turizmni rivojlantirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm rivojining eng muhim omili hisoblangan tarixiy-madaniy yodgorliklarga yangicha munosabat shakllangan bo'lib, moddiy va nomoddiy yodgorliklarni o'rganish, asrab-avaylash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, shuningdek, tarix va madaniyat yodgorliklarini asrab-avaylashga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida[1] turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish alohida o'rin tutgan edi.

2022-yil 28-yanvarda tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining[2] **73-maqсадida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish”** belgilangan bo'lib, xalqimizning tarixiy-madaniy yodgorliklari, moddiy va nomoddiy merosi kabi noyob, kam o'rganilgan me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylash, milliy o'zlikni asrash, ma'naviyatni va madaniyatni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, “O'zbekiston-2030” strategiyasining[3] 58-maqсadi “O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish”ni ko'zda tutgan bo'lib, ushbu maqsad doirasida 2030-yilga qadar xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar mamlakatimizda turizmni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda. O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta”[4], – deb ta'kidlagan.

O'zbekiston bejizga Markaziy Osiyoning turistik durdonasi deb atalmaydi, zero Vatanimiz boy madaniy-tarixiy merosga, betakror me'morchilik va san'atga, o'ziga xos sayyohlik salohiyatiga ega, bu yerdagi tarixiy yodgorliklardan 200 dan ortig'i, shu jumladan, jahonga mashhur bo'lgan Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Xiva kabi shaharlarimiz tarixiy turizmning muhim obyektlari sifatida YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatidan joy olgan.

Keyingi yillarda O'zbekiston tomonidan turizm sohasida erishilgan natijalar xalqaro maydonda ham yuksak e'tirofga sazovor bo'lmoqda. Xususan, 2019-yilda O'zbekiston “National Geographic Traveler Awards” tanlovining “gastronomik turizm” yo'nalishi bo'yicha g'olib deb topildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) esa O'zbekistonni turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan 20 davlat ro'yxatida 4-o'ringa qo'ydi[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari ham so'nggi yillarda yurtimizda turizm sohasi jadal rivojlanganligidan dalolat bermoqda, xususan, 2022-yilda O'zbekistonga 5,2 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 2,5 barobarga ortgan. 2017-2022-yillarda turizm xizmatlari eksportining umumiy hajmi 5,13 milliard dollarni tashkil etgan[6].

Ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy merosning yurtimizga sayyohlarni jalb qilishdagi o'rni beqiyos. Zero, asrlar mobaynida O'zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo'lida muhim rol o'ynagan. Samarqand esa “Buyuk Ipak yo'lining yuragi” deb nom olgan. Qadim davrlarda Samarqand “Islom me'morchiligi marvaridi”, “Dunyo ko'zgusi” kabi nomlar bilan ta'riflangan. Turizmni rivojlantirishda O'zbekiston tarixining tutgan o'rni va ahamiyatini 2022-yilda Samarqanddagi “Buyuk ipak yo'li” xalqaro turizm markazi tarkibida ochilgan “Boqiy shahar” me'moriy ansambli misolida ham ko'rish mumkin. Bu majmuani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Har qanday sayyohni qadimiy afsonalar olamiga, tarixiy obidalar dunyosiga olib kiradigan tom ma'nodagi noyob loyiha”, – deb ta'rifladi[7]. Shuningdek, bu ulkan markaz

buyuk ajdodlarimiz bunyod etgan muhtasham me'moriy obidalarga munosib bo'lib, ularning tarixiy an'analarini davom ettiradi hamda mamlakatimizda hozirgi paytda poydevori qurilishi boshlangan Uchinchi Renessans va oldingi tarixiy davrlar o'rtasidagi ramziy ko'priklar bo'ladi, – deb ishonch bildirdi.

4. Xulosalar:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ming yillar davomida ajdodlarimizning mohir hunarmandlari tomonidan yaratilgan ajoyib mahsulotlar, moddiy boyliklar, tarixiy obidalar dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Mamlakatimizning boy tabiiy, madaniy va tarixiy obidalardan tashkil topgan noyob merosining mavjudligi yurtimizda turizmni yanada rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 07.02.2017-yil, PF-4947-son. <https://lex.uz/acts/-3107036> (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan". February 7, 2017, No. DP-4947. <https://lex.uz/acts/-3107036>).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 28.01.2022-yil, PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026". January 28, 2022, No. DP-60. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 11.09.2023-yil, PF-158-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the Strategy "Uzbekistan-2030". September 11, 2023, No. DP-158. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>).

4. Turizmni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. 03.10.2017. <https://president.uz/oz/lists/view/1099> (Issues of further development of tourism are discussed. 03.10.2017. <https://president.uz/oz/lists/view/1099>).

5. Узбекистан признан открытием года по версии National Geographic Traveler. <https://review.uz/post/staty/uzbekistan-priznan-otkrytiem-goda-po-versii-national-geographic-traveler?sub=economy> (Uzbekistan recognized as the opening of the year by National Geographic Traveler <https://review.uz/post/staty/uzbekistan-priznan-otkrytiem-goda-po-versii-national-geographic-traveler?sub=economy>).

6. O'zbekistonga tashrif buyurgan aksariyat sayyohlarning yoshi 31-55 yoshni tashkil qildi. <https://www.yuz.uz/uz/news> (The age of most tourists visiting Uzbekistan was 31-55 years. <https://www.yuz.uz/uz/news>).

7. Yangi Samarqand: voqelikka aylangan orzu. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 23.08.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5456> (New Samarkand: a dream come true. Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn opening ceremony of the International Tourist Center "Great Silk Road" in Samarkand. 23.08.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5456>).



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000